XALQ DEPUTATLARI URGANCH SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

A.Bahodirxon ko'chasi 186A-uy, +998 62 228 6546, 220100

2025-yil 30-dekabr VII-17-118-12-180-K/25 Urganch shahar

Urganch shahrining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet Kodeksining 27, 99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuniga va xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining 2025-yil 29 dekabrdagi VII-16-151-12-0-K/25-son qaroriga muvofiq hamda Urganch shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2025-yil 23-dekabrdagi 01/01-38/108-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Urganch shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni hamda xalq deputatlari Xorazm viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-16-151-12-0-K/25-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, Urganch shahar budjetining 2026-yilgi daromadlari 164,6 mlrd.so‘m va xarajatlari esa 164,6 mlrd.so‘m, shuningdek,shahar budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 945,0 mln.so‘m etib belgilanganligi inobatga olinsin hamda ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Shahar budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda shahar budjetidan 2026-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Shahar budjeti zahira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun 1,8 mlrd.so‘m miqdorida belgilansin.

Bunda, zahira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari J.Eshchanov, shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (J.Sapayev), shahar soliq inspeksiyasi (S.Abdullayev) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

6. Mahalliy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan budjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari shahar Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, mahalliy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan, ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

budjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

budjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

7. Mazkur qaror ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Ushbu qaror bajarilishini ta’minlash shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari J.Eshchanov zimmasiga yuklatilsin.

9. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Urganch shahar Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Sh.Xalimov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **RADJAPOV BUNYOD MADIRIMOVICH**

Xalq deputatlari Urganch shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-17-118-12-180-K/25 -son
qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Urganch shahar mahalliy budjeti daromadlarining prognoz ko‘rsatkichlari miqdori

№	Daromad turlari	JAMI
	JAMI	**164 584 122**
1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	2 248 860
2	Foyda solig‘i	6 666 420
3	Aylanmadan olinadigan soliq	30 895 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	42 526 800
5	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	7 056 000
	Aksiz solig‘i jami	0
	alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	*0*
	pivo	*0*
6	*benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i*	*0*
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	6 178 560
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	32 374 832
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	6 645 150
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	16 046 000
11	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	31 000
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	7 719 000
	shundan: Qishloq bo‘jaligi korxonalari bo‘yicha suv solig‘i	0
	Qishloq xo‘jaligi korxonalari suv solig‘ining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	0
13	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va	0

	davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	
14	Davlat boji	2 575 500
15	Yig‘imlar	2 027 950
16	Jarimalar	953 050
17	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	640 000

Xalq deputatlari Urganch shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-17-118-12-180-K/25 -son
qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun Urganch shahar mahalliy budjetidan mahalliy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

№	**Mahalliy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi**	**Cheklangan miqdor**
	Xarajatlar miqdori, jami	**164 584 122**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	*47 120 449*
	shundan:	
	"Mening maktabim"	*1 915 800*
2	Madaniyat bo‘limi	*13 650 376*
3	Yoshlar ishlari agentligining shahar bo‘limi	*4 644 064*
4	Sport bo‘limi	*4 905 829*
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	*2 001 846*
6	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	*2 701 719*
7	Irrigatsiya bo‘limi	*0*
8	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	*3 153 896*
9	Ijtimoiy himoya milliy agentligining shahar bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari	*359 232*
10	Hokimiyat	*32 257 130*
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*17 084 618*
	"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*1 574 753*
	Zahira jamg‘armasi	*1 787 069*
11	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	*52 428*
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*52 428*
	Axborot-kutubxona markazlari	*0*
12	Obodonlashtirish boshqarmasi	53 737 153
13	Boshqa tashkilotlar	